

ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИК ТАРИХИГА ОИД МАНБАЛАРНИНГ СОЦИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Akmal Gadaymurodovich Abdullayev

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar Universiteti dotsenti,
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc)*

Tel: +99898 125 34 60 – Email: agabdullayev94@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'rta Osiyoda vujudga kelgan ilk davlatlar haqida ma'lumot beruvchi manbalar tahlil qilingan. Shuningdek, ilk davlat haqidagi qadimgi manba "Avesto" kitobida keltirilgan ma'lumotlar yoritilgan. Maqolada tashqari qadimgi davlatlardagi davlat boshqaruv usullarini shakllanish tarixi tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Davlat, davlat boshqaruv, ijtimoiy hodisa, boshqaruv, Qadimgi Xorazm, Baqtriya, Prafiya, Zardushtiylik, Avesto, Sharq, qadimgi manbalar, O'rta Osiyo.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ

Акмал Гадаймуродович Абдуллаев

*доцент Университета журналистики и массовых коммуникаций
Узбекистана, доктор социологических наук (DSc)*

Тел.: +99898 125 34 60 – Эл. почта: agabdullayev94@gmail.com

Аннотация. В статье анализируются источники информации о первых государствах, возникших в Центральной Азии. Также освещаются сведения о первом государстве, содержащиеся в книге "Авеста", древнем источнике. В дополнение к статье освещается анализ истории становления методов государственного управления в древних государствах.

Ключевые слова: Государство, государственное управление, социальный феномен, администрация, Древний Хорезм, Бактрия, Прафия, зороастризм, Авеста, Восток, древние источники, Центральная Азия.

SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF SOURCES ON THE HISTORY OF UZBEK STATEHOOD

Akmal Gadaymurodovich Abdullaev

*Associate Professor, University of Journalism and Mass Communications of
Uzbekistan, Doctor of Sociological Sciences (DSc)*

Tel: +99898 125 34 60 – Email: agabdullayev94@gmail.com

Abstract. The article analyzes the sources of information about the first states that emerged in Central Asia. Also, information about the first state contained in the book "Avesta", an ancient source, is covered. In addition to the article, the analysis of the history of the formation of state management methods in ancient states is covered.

Key words: State, state administration, social phenomenon, administration, Ancient Khorezm, Bactria, Prafia, Zoroastrianism, Avesta, East, ancient sources, Central Asia.

KIRISH. XXI asr so‘ngi o‘n yilligida Yangi O‘zbekistonda o‘zbek davlatchilik tarixi va davlat boshqaruvi hamda sharq davlat boshqaruviga doir ta‘limotlarini dunyo sivilizatsiyasiga metodologik ta‘sir ko‘rsatganini Sharq mutafakkirlarining ta‘limotlarini turli fanlar doirasi chuqur o‘rganish orqali ilmiy asoslashga oid ilmiy izlanishlar olib borildi. Natijada ko‘plab aniq va tabiiy fanlar doirasida aynan Sharq mutafakkirlari tomonidan amalga oshirilgan katta ilmiy kashfiyotlar dunyo hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyevning “Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta‘lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi” ochilish marosimidagi nutqida “Diyorimizdan yetishib chiqqan atoqli allomalar, algebra fani va algoritm tushunchasiga asos solgan Al-Xorazmiy, mineralogiya fanining tamal toshini qo‘ygan Al-Beruniy, dunyoda Avitsenna nomi bilan tanilgan mashhur tibbiyot olimi Ibn Sino, 1018 ta yulduzning koordinatlarini va harakatini aniq belgilab bergan buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek, Nil daryosining sathini o‘lchovchi noyob uskuna yaratgan alloma Ahmad Farg‘oniy kabi ulug‘ ajdodlarimiz o‘zlarining bebaho asarlari, ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan o‘rta asrlardagi Birinchi va Ikkinchi Sharq Renessansi rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar” deb ta‘kidlab o‘tgan [1; 234].

Bugungi zamonaviy dunyoda sotsiologiya fanida yangi yunalish ya‘ni davlat boshqaruvining sotsiologik asoslari yo‘nalishi yuzaga kelmoqda. Davlat boshqaruvi tarixiga doir Sharq mutafakkirlarining sotsiologik ta‘limotlarini zamonaviy sotsiologiyada hozirgi kungacha ochilmagan qirralari va jihatlarini tiklash sotsiologiya fanidagi mavjud metodologik bazani kengaytirib va aniqlashtirib yanada boyitishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Uzoq vaqtlardan buyon Sharq va G‘arb mutafakkirlarining fanlarni shakllanish tarixiga nisbatan yondashuvlari ikki xil qutbdek ko‘rinsada, sivilizatsiyani yuzaga kelish sabablari, zarurati va omillarining metodologik asosini qadimdan ko‘plab olimlar, mutafakkirlar va donishmandlar o‘rganib kelgan. Antik davrining mutafakkirlari bo‘lmish Gerodot, Suqrot, Aflotun, Aristotel o‘z asarlarida sivilazatsion jarayonlarning yuzaga kelishi sabablarini falsafiy va siyosiy ta‘limotlar orqali asoslab berganlar. Sharqning qomusiy olimlari va mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Abu Bakr Narshahiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Xaldun jamiyatlarning yuzaga kelish tarixi, dunyo xalqlarining etnik belgilarini shakllanish tarixi va davlat boshqaruvi masalalarini islom dini g‘oyalari asosida o‘z ilmiy qarashlari bilan tushuntirgan bo‘lsalar, G‘arbda Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Dante Alegyeri, Nikkolo Makiavelli, Tomas Mor, Tomazzo Kompanella va boshqa mutafakkirlar dunyo sivilazatsiyasining ildizlarini va ilk ko‘rinishlarini o‘zlarining falsafiy ta‘limotlari orqali nazariy asoslantirganlar.

Xorijiy mamlakatlar olimlari E.Zaxau, G.Zuter, E.Videman, Dj.Sarton, A.Miyeli, Arez G‘ulom Jaylani, S.Nasr, A.Sharma, G.Leymlen, P.Bulgakov, S.P.Tolstov, G.P.Matviyevskaya, A.A.Semenov va boshqalar Sharq mutafakkirlarining ilk shaharlar va davlatchilik va davlat boshqaruvining vujudga kelishi, tabiiy va aniq fanlar tarixi, matematika, trigonometriya, geometriya, geografiya, astronomiya, menirologiya, hind sansara ta‘limoti, tarix va etnografiyaga

oid asarlari o'rgangan. Mumtoz sotsiologlardan O.Kont, M.Veber, G.Zimmel, E.Dyurkgeym, G.Spenser, F.Tyonnis, T.Parsons, P.Sorokin, R.Merton, E.Geddinslar sotsiologiya metodologiyasini shakllanishi shuningdek, Sharq va G'arb sivilizatsiyalarining aloqadorligiga doir qarashlarini uchratish mumkin. S.Xantington, N.Elias, Sh.Eyzenshtadt va Yoxan Arnason, G.Markuze va boshqalar dunyo xalqlarining sivilazatsiyasiga ta'sir qiluvchi konsepsiyalarni va sivilazatsiyalar aro munosabatlarning o'zaro ta'siri hamda sivilazatsiyalar aro to'qnashuvlarni bartaraf etishning sotsiologik yechimlarini tadqiq etganlarini qayd etish lozim. MDH olimlaridan R.Braslavskiy, M.Maslovskiy, L.Titarenko va boshqalarning ilmiy ishlarida zamonaviy jamiyatlarning sivilizatsion dinamikasiga oid va G'arb sivilizatsiyasiga metodologik ta'sir etuvchi ta'limotlar va sotsiologik qarashlarni kuzatish mumkin. Mazkur olimlar G'arb sivilazatsiyasiga ta'sir qiluvchi nazariyalarni kompleks ilmiy yondashish zarurligini asoslab berishgan.

O'zbekistonlik olimlardan I.Muminov, Ya.G'ulomov, X.Raxmonqulov, R.A.Ubaydullayeva, A.Saidov, M.Bekmurodov, O.Husanov, A.Umarov, A.Xolbekov, T.Matibayev, Sh.Sodiqova, B.Farfiyev, O.Abduazimov, Sh.Madayeva, O.Ota-Mirzayev, A.Seyitov va B.Karimov kabi mamlakatimiz olimlari Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari, ijtimoiy falsafiy qarashlari hamda ularning davlat boshqaruviga doir sotsiologik ta'limotlarini dunyo sivilazatsion jarayonlariga ta'sirini turli fanlar nuqtai-nazaridan tadqiq qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto", "Qobusnoma", "Siyosatnoma", "Temur tuzuklari", "Dastur al-vuzaro" va "Majma al-arqom" kabi nodir qo'lyozmalardagi davlat boshqaruviga doir yondashuvlari hamda ta'limotlari. Shuningdek, professor M.Bekmurodovning "Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi" monografiyasida zamonaviy boshqaruv jarayonlarini sotsiologik o'rganish muayyan mamlakat, hudud yoki sohaning real holati va taraqqiy ettirish imkoniyatlarini ilmiy tahlil etish va uni tizimli rivojlantirishga doir mavjud imkoniyatlarni asoslantirgan [2; 313], professor A.R.Raxmanovning "Davlat boshqaruvi: nazariya va amaliyot, tarix va bugun" qo'llanmasida davlat boshqaruvi nazariyasi va tarixi, davlat boshqaruvinin amalga oshiruvchi davlat organlari hamda nodavlat va notijorat tashkilotlarining davlat boshqaruvidagi ishtiroki masalalarini nazariy asoslantirgan [3; 38], professor Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixining eng qadimgi davrlardan Rossiya bosqiniga qadar" asarida Sharqdagi ilk davlat shakllari va undagi boshqaruv usullari yoritilgan [3; 368],

Tahlil va natijalar (Analysis and results) O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov "O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700-yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi" deb ta'kidlagan [5; 375]. Davlatchilik tarixi eng qadimgi manba sifatida miloddan avvalgi birinchi ming yillikdagi Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" kitobini aytish mumkin. Ushbu manbada miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga oid noyob ma'lumotlarni ko'rish mumkin. Shuningdek, qadimshunos olimlarning o'lkamizning turli hududlarida olib borgan arxeologik-qidiruv ishlari natijasida to'plangan

ma'lumotlar muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, qadimgi Yunon, Rim va Eron kabi ko'ha davlatlarning tarixiy manbalari ham davlatchilik tarixi va qadimgi davlatlardagi davlat boshqaruv usullari haqida asl ma'lumotlarni olish mumkin.

Sharq va G'arbda o'zining tarixiy asarlari bilan mashhur bo'lgan Sharq allomalari bo'lmish Abul Fazl Bayhaqiyning "Tarixi Bayhaqiy", Muhammad ibn Sulaymon Rovandiyning "Rohat as-sudur", Sadriddin Ali Husayniyning "Zubdat at-tavorix", Muhmmad ibn Ahmad Nisoviyning "Sirat as-sulton Jaloliddin Mankburni", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Tojiddin Salmoniyning "Tarixi Toji Salmoniy", Abdurazzoq Samarqandiyning "Mashlai sa'dayn va majmai bahrayn", Fazlullouh Ruzbehonning "Mexmonnomai Buxoro", Xofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Muxdmmadyor ibn Arab qatag'onning "Musaxxir al-bilod", Maxmud ibn Valining "Baxr al-asror fi manohib al-axyor", Muxammad Yusuf munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Abdurahmon Davlatning «Tarixi Abul Fayzxoniy», Mulla Vafo Karmanagiy va Olimbekning "Tuxfat al-xoniy", Niyoz Muxammad Xuqandiyning "Tarixi Shox,ruxiy", Ahmad Donishning "Risola yo muxtasari az torixi saltanati xonadoni Manttiya" [6; 375]. kabi asarlarida turli davrlardagi davlat boshqaruviga doir ma'lumotlarni hamda davrlar kesimida davla boshqaruvidagi turli islohotlar va yangilanishlarning rivojini ko'rish mumkin.

Sharqda iqtisodiy murakkabliklar, ob-havo, suv muammolarining keskinligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining faqat sug'orish vositasida yetishtirilishi, ularni saqlash masalalari muayyan markazlashgan idora tizimlarini tarkib toptirish hamda boshqarish zaruratini kun tartibiga chiqargan. Bu esa miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalaridan boshlab Misr, Hindiston, Mesopatomiya, Xitoy va Markaziy Osiyoda davlatchilikning mustahkam an'analari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Sharq davlatchiligi negizida ijtimoiy birlik mutloqlashtirilar, jamiyatda jamoaviy yaxlitlik amal qilar, alohida shaxslarning o'zligini jamoa ixtiyoridan tashqarida individual namoyon etishi ma'qo'llanmas edi. Shaxslararo siyosiy, iqtisodiy, axloqiy qarashlar birligi, qaror qabul qilinishida mutlaq yakdillik sharqona birdamlik va hamjihatligining ma'naviy asosini ifoda etar edi. Sharqning qadimgi davlatlarida xudo davlat boshqaruvi barqarorligini ta'minlovchi obraz sifatida talqin etib kelingan. Masalan, Xitoyda imperatorni ilohiy zot, ya'ni osmon farzandi sifatida, Misrda fir'avnni xudo - iloh tarzida, qadimgi Shumer davlatida esa podshoh xudoning aynan o'zi, deb ham talkin etib kelingan. Fir'avn va podshohlar hukmi nafaqat jamiyatga, balki tabiatga xam ta'sir eta oluvchi kuch sifatida tushunilgan [7; 8].

Insoniyat tarixida ilk marta davlat boshqaruvchisini "Xudo" darajasidagi maqomini suslashtirgan va keyinchalik bekor qilgan yetuk shaxslar sifatida Muso payg'ambar a.s., Konfutsiy, Zardusht, Budda singari diniy g'oyalarning asoschilari tom ma'noda davlat boshqaruvchisi degan katta bir tushunchani tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga ushbu diniy g'oyalarni asosiy manbasi sanalmish muqaddas kitoblar ya'ni "Tavort yoki Talmut", "Avesto" "Gita" "Upanishada" kabi ilohiy kitoblar o'zidan oldingi davlat boshqaruvchi xudo degan tushunchalarni butunlay bekor qilgan. O'z o'rnida bunday diniy g'oyalar jamiyatda ijtimoiy ongni transformatsiya bo'lishiga sabab bo'lgan.

O'rta Osiyoda hududida dastlabki davlatlar miloddan avvalgi ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelganligini eng qadimgi yozmalarni o'zida birlashtirgan "Avesto" kitobida O'rta Osiyoning "**Qadimgi Xorazm**" Xorazm (Kairizem, Ayranam-vejo), Sug'diyona (sug'dlar makoni Gaza), Marv (Mouru), Niso (Nisaya), Ariya (Xarayva), Baqtriya (Baxdi) kabi bir qator tarixiy viloyatlari nomi tilga olingan. Unda voqealar bayoni Axura Mazda nomidan berib boriladi: Masalan, "Men Axura Mazda, eng afzal makon va mamlakatlar sirasidan Ayranam-vejoni, so'ngra sug'dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mouruni, to'rtinchi bo'lib Baxdini, beshinchi bo'lib Mouru va Baxdi oraligidagi Nisaya ni yaratdim" degan bitiklarni uchratish mumkin. Avestodagi Miloddan avvalgi O'rta Osiyo mintaqasining siyosiy xaritasida Xorazmdan tashqari **Baqtriya, Parfiya, Farg'ona (Davan), Tohariston** kabi davlat birliklari ham bo'lgan. Baqtriya – bu viloyat nomi esa Baqtr (Balxob) daryosi nomi bilan bog'liq. Baqtriyaning poytaxt shahri Baqtr ham xuddi shunday nomlangan. Yunon tarixchisi Gerodot bu haqida "Uning (Baqtr daryosining nomi bilan shahar va viloyat ham ataladi)". "Avesto"da Baqtriya (Bahdi) bayroqlari (doim) baland hilpirab turadigan», ya'ni shon-shavkat o'lkasi sifatida tilga olingan [8; 21-27]. Miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Vatanimiz hududlarida 3 ta: **Katta Xorazm, Baqtriya** hamda **saklar va massagetlar** konfederatsiyasi shaklidagi dastlabki davlatlar shakllangan. Bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Ayniqsa bu ilk davlatlar orasida Baqtriya nisbatan barqaror bo'lganligi bilan ajralib turadi. "Katta Xorazm" "ishlab chiqarishning Osiyo usuli"ga ega bo'lgan davlatlarning qadimgi sharq tipiga mansub edi. Saklar va massagetlarning konfederatsiyasi esa chorvador turlarning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning harbiylashgan davlatidan iborat edi [9; 44].

O'rta Osiyoning Atrek xamda Gorgon daryolari yuqori havzasida joylashgan (Janubiy Turkmaniston, Shimoli - Sharqga Eronning bir qismi) qadimgi davlatlardan yana biri qadimgi **Parfiya** nomi bilan yuritilgan. "Avesto"da Axura Mazdaning beshinchi bo'lib Nisaya o'lkasini yaratgani haqida iboralar uchraydi [10; 660].

O'rta Osiyo yunon-makedon istilosi va salavkiylar sulolasi hukmronligidan keyin mil. avv. III asr boshida hozirgi Toshkent vohasida va Sirdaryoning o'rta va shimoliy oqimi hududlarida **Qang'** davlati vujudga kelgan. Bu davlatning etnik tarkibini turli qabila, elatlar tashkil etgan. Unda yetakchi qang'arlardan tashqari qatarlar, kamarlar, toharlar, apasshaklar, asiylar va boshqa qabila, urug'lar ham yonma-yon istiqomat qilganlar. Mil. avv. II-I asrlar Qang' davlatining eng kuchaygan davri edi. Shu davrlarda Qang' bir qator viloyatlarni o'z tobeligiga bo'ysundirgan edi. Xitoy solnomalarida bu viloyatlarning 5 ta nomi tilga olinadi. Bular – Susye (Kesh-Shahrisabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuni (Toshkent viloyati), Gi (Buxoro vohasi), Yuyegyan (Urganch shahri va viloyati) [9; 59-60].

Davan nomi bilan mashhur bo'lgan qadimgi davlat haqidagi ma'lumotlarni mil. av. II asr oxirlarida (128-yilda) bu o'lkaga tashrif buyurgan Xitoylik elchi Chjan Syan yozma manbalarida ko'rish mumkin. U Farg'ona vodiysidagi davlatni Davan (Da-yuan) deb atagan. Davan ham o'z davlatchiligiga ega mustaqil hudud sifatida Yunon-Baqtriya, Qang'a singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olgan davlat bo'lgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan Baqtriya, Parfiya, Tohariston, Katta Xorazm, Qang' va Davan qadimgi davlatlarning davlat boshqaruv usullari bir-birlaridan katta farq qilmaydi. Ushbu davlatlarda davlat boshqaruvi yakka boshqaruvga asoslangan bo'lib, davlat boshqaruvida hukmdorning shaxsan o'zi barcha qarorlarning qabul qilgan. Ammo, davlat boshqaruvida hukmdorning o'zi to'ridan-to'g'ri ishtirok etmasada uning ishtirokini yordamchi vazirlar va oqsoqollar kengashidan iborat boshqaruv apparati bo'lgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, davlat boshqaruvi tizimida hukmdor, uning ikki yordamchisi (vaziri) va oqsoqollar kengashi faoliyat ko'rsatganligi xitoy manbalarida uchratish mumkin. Yordamchilar asosan oliy hukmdorning qarindoshlari orasidan tayinlangan. Ammo oqsoqollar kengashi esa mamlakat ijtimoiy, siyosiy va tashki munosabatlarida faol ishtirok etish bilan bir qatorda oliy hukmdor faoliyati bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish vakolatiga ham ega bo'lgan. Masalan, urush ochish, sulh tuzish, yangi hukmdorni tayinlash, uni taxtdan mahrum qilish kabi siyosiy tadbirlarda oqsoqollar kengashi katta siyosiy kuchga ega bo'lganlar. Demak, davlat boshqaruvi markazida hukmdor bo'lgan. Uning boshqaruvga doir vakolatlarini uning vazirlari amalga oshirgan. Oqsoqollar kengashi esa davlat boshqaruvi va davlat siyosatini barcha yo'nalishlaridagi faoliyatda ustunlikka ega bo'lgan siyosiy tashkilot bo'lgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Miloddan avvalgi birinchi mingyillikda O'rta Osiyoda davlatchilik asoslari qaror topib, Baqtriya, Parfiya, Tohariston, Katta Xorazm, Qang' va Davan kabi ilk davlatlar tashkil topgan. Turli davr shart-sharoitlarida ulkaning tabiiy, geografik, aqliy imkoniyatlarini rivojlantirib yuksaklikka kutarshda, o'sha kadim zamonlardayoq global sivilizatsion jarayonlarga o'zining hissani qo'shgan. Dunyo tarixida ilk davlatchilik o'choqlaridan bo'lmish Misr, Jazira, Finikiya, Falastin, Suriya, Eron, Hindiston, Xitoy, Yunoniston bilan bir vaqtda O'rta Osiyoda Baqtriya, Parfiya, Tohariston, Katta Xorazm, Qang' va Davan kabi davlatlar shakllangan.

Mamlakatni birlashtirish, hududiy yaxlitlikni ta'minlash, savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, madaniy axloqlarni jadallashtirish, xalqaro maydonda izchil va faol siyosat yuritishda saltanatchilik ijobiy ahamiyat kasb etgan. Ammo turli ichki va tashqi omillar sabab yuz bergan saltanat parchalanishi oqibatida sulolalar almashuvi, bir necha yuz yillarda shakllangan davlat boshqaruv an'analarning o'zgarishini keltirib chiqargan.

ADABIYOTLAR.

1. Янги Ўзбекистон № 234 (756), 2022 йил 16 ноябрь
2. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – Б.313.
3. Давлат бошқаруви: назария ва амалиёт, тарих ва бугун (А.Рахманов ва бошқалар).—Т., 2007, – Б.38.
4. Азамат Зиё Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар) // Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Т.: “Шарк”, 2001. – Б.368.
5. И.А.Каримов. Асарлар. Т.6. Т.: Ўзбекистон, 1998, 375-бет.

6. Абул Файз Байхақий. Тарихи Байхақий. Али Акбар Фаёз нашри. Қобул, 1364 00; Абул Файз Бейхаки. История Масъуда. Перевод А. Арендса. 1962; Мухаммад ибн Али Ровандий. Роҳат ас-судур ва оят ас-сурур. М. Иқбол нашри. Техрон, 1363 00; Садр ад-Дин Али Хусайний. Зубдат ат-таварих. Издание и перевод З. Буниятова. Москва, 1980; Шихаб ад-Дин Насави. Жизнеописание султана Джалала ад-Дина Манкбурни. Перевод З. Буниятова. Баку, 1973; Низомиддин Шомий. Зафарнома. Таувер нашри. 1-2-жилдлар. 1937; 1956; Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Нашрга тайёрлаш, сўз боши, изоҳ ва кўрсаткичлар А.Ўринбоевники. Тошкент, 1972; Тожиддин Салмоний. Тарихи Тожи Салмоний. Исмоил Ака нашри. 1988; Абдуразок Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи базфайн. Сўз боши, таржима ва илмий изобар муаллифи А.Уринбоев. Тошкент, 1969; Фазлуллах Рузбехан. Михманнаме-йи Бухара. Перевод Р.Джалиловой. Москва, 1976; Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. С. Мирзаев таржимаси. 1-2-жилд. Тошкент, 1966; 1969;

7. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – Б.8.

8. «Авеста». Издательство:Дружба народов, КРАМДС - Ахмед Яссауи, Алматы, 1992. Стр.21-27.

9. Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2005, – Б.478.

10. Авесто. Нашрга тайёрловчи Ж.Дустгоҳ. Техрон, 1370 Ҳижрий йил, (1949 милодий) I—II жилдлар. II жилд, – Б.660. تهران، توسط شده تهیه. اوستا. J.Dustgoh. 1370 هجری قمری، 1949م، دوم تا اول جلد، دوم جلد، – ب.660.